

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ADABIY TA'SIR VA BADIY BARKAMOLLIK: NAVOIY VA HUSAYNIY

Iqboloy ADIZOVA

Filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

ataullo98@mail.ru

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804436>

Annotation: Mazkur maqola Navoiy va Husayniyning o'zaro adabiy ta'siri, hamkorlik va maslakdoshlik maqomini yoritishga bag'ishlangan. Do'stona munosabatlarning ijodiy shakllanish va takomillashuvdagi ahamiyati belgilangan. Ijodkorlarning tafakkur va ifoda uyg'unligi hamda o'ziga xosligi talqin etilgan. Mahorat qirralari aniqlangan. Qo'yilgan masala ularning taxmis hamda tasdislari orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: muxammas, majlis, irfoniylilik, tasavvuf, e'not, aruz, taxmis, tasdis, adabiy jarayon.

Аннотация: Данная статья посвящена взаимному литературному влиянию Навои и Хусайни, а также статусу художественного единомышления. ученичества его учителя. Определено значение дружеских отношений в творческом становлении и совершенствовании поэтов. Интерпретируется гармония мышления и выражения, оригинальность взаимодействия. Определены поставленный вопрос раскрывается на примере лирических жанров тахмис и тасдис.

Ключевые слова: мухаммас, меджлис, мистика, энот, аруз, тахмис, тасдис, литературный процесс.

Annotation: This article is dedicated to the mutual literary influence of Navoi and Husayni, and the status of his teacher's discipleship. The importance of friendly relations in creative formation and improvement is defined. The harmony of thinking and expression and originality of the creators are interpreted. Areas of expertise are defined. The issue is revealed through their assumptions and confirmations.

Key words: mukhamas, majlis, mysticism, enot, aruz, takhmis, tasdis, literary process.

Navoiy va Husayniy Hirot adabiy muhitida hamkorlikda ish yuritib, ham ijtimoiy, ham madaniy hayotda yuksak marralarni egallashdi. "Majolis un-nafois" – adabiy jarayonning ko'zgusi. Unda Navoiy, davrining 459 allomasi qatorida, Husayniy ijodiga ham alohida e'tibor qaratgan. Asar tarkibidagi sakkiz majlisdan so'nggisi to'liqligicha unga bag'ishlangan. Asarning yaratilish maqsadidan kelib chiqib, majlisda, asosan, Husayniyning ijodkorligi bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Muallif qo'yilgan muammoni keng qamrovda, adabiyotshunos olim sifatida nazardan o'tkazadi. Qadrdon do'sti ijodiy faoliyatining o'ziga xos, noyob xususiyatlarini, betakror g'aroyibliklarini ochib beradi. Navoiy Husayniy mahoratini belgilar ekan, ijodining quyidagi turli qirralarini aniqlash yo'lidan boradi:

1. G'azallarining mazmun va ma'no qamrovi;

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2. Naziranavislik va tatabbunavislik mahorati;
3. Asarlaridagi qofiya va radiflarning qo'llanilish tizimi;
4. Badiiy san'atlardan foydalanish uslubi;
5. Turkiy she'riyatga olib kirgan yangiliklari;
6. Adabiy jarayonga ijodiy munosabati.

Navoiy “Majolis un-nafois”da Husayniy g‘azallaridan olingan 166 baytni tahlil etadi. Ular asosida Husayniy she'riyatining fasohatini yoritib beradi. Uning devon tartib bergani, asarlari ko‘pligi va mahorat bilan yozilgani haqida so‘zlar ekan, har g‘azalidan bir matla’ keltirganini ta’kidlaydi: *“Ul hazratning xo‘b ash‘ori va marg‘ub abyoti bag‘oyat ko‘ptur va devon ham murattab bo‘lubtur. Devon ibtidosidin bunyod qilildi va har g‘azaldin bir matla’ yozildi [1: 1997, 174].* “Majolis un-nafois”ning 1498 yilda yakunlanganini hisobga olsak, shu davrgacha Husayniy 166 ta g‘azal yaratgan ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki asarda Navoiy arab alifbosining 28 harfini va ularga mos tarzda, g‘azal baytlarini tartib bilan keltiradi.

Husayniy asarlari kiritilgan qo‘lyozmalarda g‘azallari turli miqdorda keltiriladi. Ayrim bayozlarda 1 -2 ta g‘azali mavjud. Eng ko‘p miqdorda 126, 145, 151 tagacha g‘azallarni uchramiz. Husayniy devoni shu paytgacha 4 marta xorijda¹ chop etilgan. Boku nashriga 128 ta, Afg‘oniston nashriga esa 204 ta g‘azal kiritilgan. O‘zbekistonda esa 6 marta nashr etilgan². Mazkur nashrlarda 31, 39, 56, 102, 133, 202 ta g‘azal mavjudligini kuzatamiz. Nashrlarda asosan 4 ta – g‘azal, muxammas, ruboiy va fard janridagi asarlarni uchramiz. Hozirgacha ilmda ma’lum eng ko‘p asarlari Afg‘oniston nashrida (204 g‘azal, 2 muxammas, 6 ruboiy, 6 fard, 1 forsiy g‘azal, 1 forsiy ruboiy) uchraydi. Erkinov nashri ham shu nashrga asoslangan. Unga 202 ta g‘azal kiritilgan. Yig‘ma-qiyosiy³ matnda ham 202 ta g‘azal, 2 muxammas, 7 ruboiy va 7 fard mavjud.

Mazkur maqolamizda shoirning muxammaslari bilan bog‘liq mulohazalarimizni bayon etishga qaror qildik. Manbalarda va nashrlarda Husayniyning, asosan, 2 muxammasi tilga olinadi. Yig‘ma matnga mazkur muxammaslar ham kiritilgan. Ularning ikkalasi ham Navoiy g‘azaliga bog‘langan taxmislardir. Birinchi muxammas Navoiyning, *“Ul jigar pargolasi ashkimni gulgun qildilo, Shod etay deb notavon ko‘nglumni mahzun qildilo”*[2: 1988, 441], ikkinchisi esa *“Gulshani*

¹ 1926 йил, Бокуда; 1946 йил Истанбулда; 1968 йил Афғонистонда; 2012 йил Истанбулда

² 1928 йил Фитрат томонидан “Ўзбек адабиёти намуналари”да; 1941 йил “Ўзбек адабиёти тарихи” хрестоматияси; Ҳоди Зариф томонидан тайёрланган “Навоий замондошлари”да; 1959 йил “Ўзбек адабиёти” хрестоматиясида; 1968 ва 1991 йиллар С. Ғаниева томонидан; 1995 йил А.Эркинов томонидан нашр этилди; 2016 йил Ҳ.Жўраева томонидан йиғма-қиёсий матн тайёрланди.

³ Девони Султон Ҳусайн Бойқаро. Йиғма-қиёсий матн. Нашрга тайёрловчи Ҳуснигул Жўраева. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ko'yungdin ayru bog'i rizvonni netay, Boshima gar gul sochar, sensiz gulafshonni netay" [4: 1989, 458] baytlari bilan boshlangan g'azallariga bog'langan.

Navoiyning "*Ul jigar pargolasi ashkimni gulgun qildilo, Shod etay deb notavon ko'nglumni mahzun qildilo*" bayti bilan boshlangan g'azali 7 baytdan iborat. Muxammasda g'azalning barcha baytlari to'liq saqlangan holda taxmisga olinadi va 7 banddan iborat. Unda deyarli farqlar, xatoliklar uchramaydi. Faqat ikkita o'rinda turlichalik ko'zga tashlanadi:

1. Muxammasning birinchi bandidagi Navoiyga tegishli birinchi misra mukammal asarlar to'plamida "*Ul jigar pargolasi ashkimni gulgun qildilo*" shaklida keltiriladi. Husayniyda esa "gulgun" so'zining o'rniga "jigargun" so'zi qo'llaniladi. Bu ikkala so'z sinonim bo'lib, ikkalasi ham "qizil" ma'nosini bildiradi. Navoiy g'azalining mazkur bayti MAT da ham, 10 jildlik Tanlangan asarlarida ham xuddi shu shaklda qo'llanilgan. Ilk devonda esa bu g'azal keltirilmagan. MATning 1-jildiga kiritilgan "Badoe' ul-bidoya" devonida ham "qildilo" radifli bir g'azal mavjud. Ammo u "*Yor dardim so'rmayin ko'nglumni mahzun qildilo, Jonim oshubini kam qilmoqdin afzun qildilo*" bayti bilan boshlangan boshqa mustaqil g'azal ekanligini kuzatamiz. Navoiyning mazkur ikki g'azalini qiyoslaganimizda, 8 qofiyadan 4 tasi bir xil so'zlar: "G'aroyib us-sig'ar"da 4 ta – gulgun, gardun, afsun, marhun va "Badoe' ul-bidoya"da ham 4 ta – jigargun, homun, "nun", maknun so'zlari farqli tarzda qo'llanilgan. Vazn bir xil – ramali musammani mahzuf shakliga ega.

Husayniy ham Navoiy kabi she'riyatning badiiyatiga alohida ahamiyat bergan. Vazn, qofiya, badiiy san'atlarning qusursiz qo'llanilishiga e'tiborli bo'lgan. Bu fazilat muxammasning birinchi bandida, ayniqsa, qofiya tizimida yaqqol ko'rinadi. Gardun, digargun, jigarxun, jigargun va mahzun so'zlari qofiya bo'lib kelgan. Husayniy har bir she'rdagi mantiqiy izchillik va mutanosiblikni, qofiyadagi ravonlik va tugalligu mukammallikni inobatga olgan. Jumladan, taxmisga asos sifatida olingan baytdagi gulgun so'zining jigargun so'zi bilan almashtirilishida ham chuqur mantiq ko'ramiz. She'rga yanada fasohat bag'ishlash uchun shoir ishtiyoq san'atidan foydalanadi. Ishtiyoqning to'liq namoyon bo'lishi uchun esa gulgun so'zi jigargun so'zi bilan almashtiriladi. Undan tashqari, yuqoridagi misralardagi qofiyalar izchillik kasb etishi uchun va vazn nuqtai nazaridan hijolar sonining tengligiga erishish uchun ham shunday o'zgarish qilingan. Qofiya san'atlaridan hisoblangan i'not (iltizom) san'ati bilan ziynatlagan (digargun-jigarxun-jigargun). Qofiyadosh so'zlarni tarselantirishga ham e'tibor bergan. Bularning barchasi she'rni ohangdor qilishga, o'quvchi e'tiborini jalb etishga, ravonlik va so'zlarga jilo bag'ishlashga xizmat qilgan:

Javru zulmin vah yana jonimg'a gardun qildilo,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Yoshurub ul oyni holimni digargun qildilo,
Ohu vovaylo meni asru jigarxun qildilo,
Ul jigar pargolasi ashkim jigargun qildilo,
Shod etay deb notavon ko'nglumni mahzun qildilo*[10: 2016, 163].

Bu muxammas Husayniyning taxmisnavislikda mahorati benazir ekanligini ko'rsatadi.

2. Ikkinchi farq “marhun” so‘zi bilan bog‘liq. MATda mazkur so‘z maqtada kelgan va “marhum” shaklida yozilgan. Ammo 10 jildlik tanlangan asarlarning 1-jildida u “marhun” shaklida to‘g‘ri yozilgan. MATdagi xatolik to‘g‘rilangan. Bu, balki, texnik xatolik bo‘lgandir. Marhun – garovga qo‘ymoq ma’nosini bildiradi va mazmunga mutanosib tushadi. Qofiya ham aybsiz holatga keladi.

Mazkur g‘azal majoziy ishq talqini bilan boshlanib, maqta’ baytda irfoniy mazmun kasb etgan. Husayniy muxammasning har bandida Navoiy misralarini yanada kuchaytirishga, mukammallashtirishga harakat qilgan. So‘nggi bandga kelib esa, Navoiy va Husayniy lirik qahramoni yanada uyg‘unlik kasb etadi. Ikkala shoir ham zohirbinlikdan voz kechib, boru yo‘g‘ini botin olamiga baxsh etganlaridan xabar beradi. Xirqa va joynamozini may uchun garovga qo‘yish darajasi ikkala lirik qahramonga ham tegishli ekanligini anglaymiz:

*Buki, shayxi shahrimizni xalq der oqil base,
Zuhdu taqvovu fazoyil birla ham komil base,
Ey Husayniy lek erur bu ish manga mushkul base,
Kim Navoiydin saloh istar, erur g‘ofil base,
Xirqavu sajjodasin ul mayg‘a marhun qildilo*[10: 2016, 164].

Ko‘rinadiki, majoziy ishq tasviri dinamik tarzda maqtagacha rivojlanib boradi. Metaforik obrazlar vositasida maqtada Husayniy lirik qahramoni Navoiy qahramoni bilan yanada uyg‘unlashadi. Navoiy misralaridagi may obrazi bilan bog‘liq irfoniy tushunchalar Husayniy qarashlari bilan birlashadi. She’rda chuqur ma’rifiy ma’noga ega ulkan quvvat namoyon bo‘ladi.

Husayniy mazkur asarlarga tatabbu’ usulida ham bir necha g‘azal yaratgan. Jumladan, 8-majlisda ikkita shunday g‘azal haqida ma’lumot beriladi:

*1. Ey ko‘ngul, gardun baliyat toshini yog‘durdilo,
Har taraf sabrim uyin devorini sindurdilo* [10: 2016, 171],

bayti bilan boshlanuvchi g‘azalga Navoiy “...*bu matla’ nishotfarso va anduhafzo voqe’ bo‘lubtur...*”[1: 1997, 201], deya yuqori baho beradi.

2. “*Bu radifda yana bir matlakim, g‘azal tavrida marsiyaomez, Xoja Hofiz Sheroziyga voqe’ bo‘lubtur va bag‘oyat nodirdur:*

Voy yuz ming voykim, sarvi ravonim bordilo,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Sabru hushum mulkidin oromi jonim bordilo''[10: 2016, 172].

Mazkur bayt Navoiy ta'kidlaganidek, "bag'oyat nodir"ligi bilan e'tiborni tortadi.

Husayniy devonidagi ikkinchi muxammas ham 7 banddan iborat. Ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Unda Navoiy g'azalidagi barcha misralar o'zgarishsiz, aynan qo'llanilgan. Asar ayriliq, hijron kechinmalariga bag'ishlangan. Majoziy tasvirlar va ramziy obrazlar vositasi bilan irfoniy g'oyalar, tasavvuf va tajalli falsafalari yoritilgan. Husayniy Navoiy g'azalidan ilhomlanib, unga shunday mutanosib misralarni bog'laydiki, biror o'rinda nuqsonni ko'rmaymiz. Bu shoirning baland didi va yuksak mahoratidan dalolatdir:

*Hajr anduhida to gulshan aro qildim guzar,
Sarv bo'yi qomatingning naxlidin berdi xabar,
Lekin oning vaslidin ne bahra topdim ne asar,
Naxli qadding chun emas giryon ko'zumda jilvagar,
Jo'ybor atrofida sarvi xiromonni netay* [10: 2016, 164].

Muxammasdagi Navoiy misralarida paralellizm mohirlik bilan qo'llanilgan. Birinchi misrada qad naxli (niholi)ning ko'zda jilvalanishi, 2-misradagi ariq atrofidagi sarvi xiromonga parallel qo'yiladi. Bu tabiatdan olingan manzarani Husayniyning misralari yanada hayotiyashtiradi va to'ldiradi: hajr iskanjasidagi oshiq gulshanni sayr etar ekan, yor qomatidan xabar beruvchi sarvga duch keladi. Ammo undan hech qanday bahra yo'q. Bu holatdan oshiq o'zi uchun muhim xulosa chiqaradi. Yorning vasli muyassar bo'lmas ekan, mahbubani eslatuvchi sarvlardan ham voz kechmoq kerak:

*Naxli qadding chun emas giryon ko'zumda jilvagar,
Jo'ybor atrofida sarvi xiromonni netay.*

Navoiy baytida fikr tezis sifatida aytilgan bo'lsa, Husayniy uni sharhlaydi. Aniqlashtiradi. Tabiat manzaralari oralab, o'quvchini yetaklab olib o'tadi va xulosaviy fikr bilan bog'laydi. Bu muxammas bandidagi mazmunni chuqurlashtirishga, ikki shoirning ruhiy dunyoqarashi, kechinmalari va tasavvur ko'lamini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur muxammas ikkala shoirning ham tasavvuf ta'limotiga munosabati, asarlaridagi irfoniy g'oyalar talqini masalalarini anglash imkonini beradi. Asarda boshdan-oyoq ramziy, metaforik obrazlar qo'llanilgan. Zohiran, dunyoviy go'zal tavsifi kabi tasavvur beruvchi ifodalar botinida chuqur irfoniy g'oyalar talqinini kuzatamiz. Ikkala shoirning ham xulosalari ehtiyotkorlik bilan, ramzlar vositasida, haqiqiy oshiq, ilohiy ishq va vahdat tushunchalariga borib tutashganini idrok etamiz. Ulardan 3 asr keyin yashagan, ilohiy ishqni baralla oshkora kuylagan, barcha adabiyot muxlislarini hayratlantira olgan so'fiy shoir Mashrabning quyidagi,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Bu tani xokiniyu ruhi ravonni na qilay,
Bo'lmasa qoshimda jonona, bu jonni na qilay?..
...Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,
Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikonni na qilay,*

kabi fikrlari ifodalangan asari, bevosita, Navoiy va Husayniy ijodi sarchashmalaridan bahra olganini sezish qiyin emas. Faqat mazmun va mantiq jihatidan emas, balki qofiya uchun tanlangan so'zlarda ham mushtaraklik ko'ramiz. "Netay" so'zi bilan "na qilay" so'zlari bir xil ma'no ifodalovchi sinonimlardir:

*La'li jonbaxshingdin ayru obi hayvonni netay,
Har dam ar yuz jon berur jononasiz jonni netay,
Gar emas manzur yuzung huru g'ilmonni netay,
Gulshani ko'yungdin ayru bog'i rizvonni netay,
Boshima gar gul sochar, sensiz gulafshonni netay [10: 2016, 164].*

Yuqorida ko'ringanidek, faqat Husayniy emas, balki Navoiy ham uning asarlaridan ilhomlangan, adabiy ta'sirlangan. Ular zaminida ijodining betakror namunalarini yaratgan. Jumladan, "Badoye' ul-vasat" devoniga kiritilgan bir musaddasi Husayniyning go'zal va betakror "*Ey ajal, ozod qil hijron balosidin meni, Bir yo'li qutqar ulusning mojarosidin meni*" [10: 2016, 147] matla'si bilan boshlanuvchi g'azaliga bog'langan tasdisdir. Asar Husayniy devonidagi 182-g'azal. Ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan. Musaddasda g'azal baytlari to'liq saqlangan. 7 banddan iborat. Faqat ikki o'rinda Husayniy g'azali matnida o'zgachalik mavjud. Birinchi, matla' baytda "*Ey ajal, ozod qil hijron balosidin meni*" misrasidagi "ozod" so'zi o'rnida Yig'ma matnda "osuda" so'zi qo'llanilgan. Buni, balki, Navoiy tahrir qilib, "ozod" so'ziga almashtirgan bo'lishi ham mumkin. Chunki mazmun nuqtai nazaridan "ozod" so'zi mantiqliroq. Ikkinchi o'zgachalik musaddasning 6-bandining so'nggi misrasida. "*Derki, sabr etkil hakimi aql, qilg'il, soqiyo, Bir qadah birla xalos oning davosidin meni*" bayti 2-misrasidagi "*davosidin*" so'zi o'rnida yig'ma matnda "*duosidin*" so'zi qo'llanilgan. Bu o'rindagi turlichalik, bizningcha, noshirlar xatosi bilan bog'liq.

Musaddas oshiqona mazmunda. Unda ishq, hajr, vasl tushunchalari keng ma'noda qo'llanayotganini ko'ramiz. Majoziy ishq, haqiqiy ishq va ijtimoiy hayotdagi jabru jafolar, nomutanosibliklar uyg'unlashib, keng qamrovni tashkil etadi. "Meni" radifiga lirik qahramon, muallif meni sifatida, to'la singib ketadi. Ammo biror o'rinda oshiq so'zi qo'llanmaydi.

Husayniy g'azalining 1-baytida 2 muammo qo'yiladi. 1. Hijron balosi, 2. Ulusning mojarosi:

Ey ajal, ozod qil hijron balosidin meni,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Bir yo 'li qutqar ulusning mojarosidin meni [10: 2016, 147].

Navoiy mazkur misralardagi ikki masalani ham shoirga uyg'un tarzda to'ldiradi. Mukammallashtirib, fikrlarni yanada chuqurlashtirishga erishadi:

*Ishq zor etti xaloyiq ibtilosidin meni,
Har zamon bir ta'nagir muhlik adosidin meni,
Hajr xud kuydurdi dardi bedavosidin meni,
Ham o'lum qilg'ay xalos oning jafosidin meni,
Ey ajal, ozod qil hijron balosidin meni,*

Bir yo 'li qutqar ulusning mojarosidin meni [4: 1990, 464].

Ko'ringanidek, birinchi bandda ishq, hijron, vasl, ajal masalalari bir-birini taqozo etib, uyg'un bir galereyani tashkil etadi. Banddan-bandga o'tgan sari asarning mazmun va mantig'i chuqurlashib boraveradi. So'nggi bandda esa u to'la ramziylik kasb etadi. Endi birinchi banddagi yaqqol ko'rinayotgan ijtimoiylik irfoniylilik bilan almashadi. May, mayxona, gado, dayr, jur'a, xayli gado kabi irfoniyl obrazlar vositasida mazmun Haqiqiy ishq tushunchasi bilan to'liq bog'lanadi:

*Chun Navoiy jonini may orzusi kuydurur,
Yo'q gadoliqqa ajab mayxonalarda gar yurur,
Jur'ae dayr ahli berguncha zamone telmurur,
Shoh agar mundoq gadoni saltanatqa yetkurur,
Ey Husayniy, saltanatdin oncha faxrim yo'qturur
Kim, degaylar ko'yining xayli gadosidin meni [4: 1990, 465].*

Bandda gado obrazi muhim va asosiy mantiqni tashuvchidir. Navoiy va Husayniy fikrini uyg'unlashtirish vositasi. Navoiy qo'shgan 3 misra shoir lirik qahramonini gadolik maqomiga eltuvchi yo'l. 4-misra esa Navoiy va Husayniy fikrini birlashtiruvchi ko'priq vazifasini bajargan. Hatto, fikrlar shu darajada uyg'unlashib ketadiki, "Kim, degaylar ko'yining xayli gadosidin meni", deganda ikkala shoir lirik qahramoniga tegishlilikni his etamiz. Ikki shoirning fikr-qarashlari birlashib umumiylik kasb etadi. Ayniqsa, "saltanatdin oncha faxrim yo'qturur" jumlasini nihoyatda mahorat bilan ikki shoir dunyoqarashini birlashtirishga xizmat qilgan.

Bu holat Navoiy va Husayniyning ijod olamida bir-biri bilan qanchalik mushtarak ekanligini, bir-biridan ilhomlanib, turkiy adabiyot takomiliga hissa qo'shganini ko'rsatadi. Bu o'zbek adabiyotshunosligi oldiga katta vazifalarni qo'yib, kelajakda Husayniyning ham ijodiy mahoratini maxsus o'rganish muhimligini ko'rsatadi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. - Тошкент: Фан, 1997. – б. 281
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. 3-том. - Тошкент: Фан, 1988. – б. 613.
3. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. 1-том. - Тошкент: Фан, 1987. – б. 722.
4. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Бадойиъ ул-васат. МАТ. 4-том. - Тошкент: Фан, 1989. – б. 540.
5. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб. МАТ. 5-том. - Тошкент: Фан, 1989. – б. 558.
6. Арасту. Поэтика (Нафис санъатлар ҳақида). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – б. 350.
7. Adizova, I. (2021). An overview of cyber-crimes and its impact on economy uvaysi's role in EPIC writing. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2293-2302.
8. Adizova, I. (2019). THE GENRE OF MUSALLAS IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 648-651.
9. Атоуллоҳ Хусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – б. 395.
10. Девони Султон Хусайн Бойқаро. Йиғма-қиёсий матн. Нашрга тайёрловчи Хуснигул Жўраева. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – б. 168.
11. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.
12. Шамсиев П., Ибрагимов С. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – б. 782.
13. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. Қайта нашр. – Тошкент: Академнашр, 2013. – б. 406.
14. Jumaxo'ja, N. (2019). Talqinlarda shoirona shuur va ilmiy tafakkur. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 2(2).
15. Jumaxo'ja, N. (2024). Navoiyning musalsal g'azallar yaratish mahorati. *Alisher Navo'i and 21st century*, 1(1).